



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ERNEST XEMINGUEY- ASARLARIDA BARHAYOT QAHRAMON!

Shaxnoza Tursunova,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti 1-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183819>

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Ernest Xemingueyning asarlarida yozuvchi shaxsining aks etishi hamda turli adabiyotshunoslarning fikrlari haqida so'z yurilgan.

Kalit so'zlar: inson psixologiyasi, iroda, ijod, "biografik qahramon", ramz.

Jahon adabiyotida Shervud Anderson qo'ygan adabiy tamaltoshni keyinchalik Ernest Xeminguey davom ettirdi. Buni Xeminguey ijodini o'rgangan tatqiqotchilar ta'kidlab o'tishgan. Masalan, X.Y.Beyts, X. Levin, Ch. Fenton, F. Yang, I. Kashkin va boshqalar. Ularning izlashishlari ham Xemingueyning asosiy e'tibori inson psixologiyasi, uning irodasi masalalariga qaratilganligini ko'rsatadi. Buning yorqin misoli sifatida "Kutish kuni" hikoyasida ko'rish mumkin.

"Kutish kuni"da to'qqiz yoshli Schetz ismli bolaning hayotga qarashlari, atrofda bo'layotgan voqalarga o'z "men"idan kelib chiqib yondoshishi aks etgan (o'zbek tiliga Sh.T.tarjimasi). O'z o'limini kutish dahshati yoshgina bolaning ruhiyatini qamrab oladi. Doktor kelib uning isig'i borligini, ammo, bu unchalik qo'rqinchli emasligini ta'kidlaydi. Shu bois unga isitmani tushiradigan dorilarni berib, ortiga qaytadi. Ammo, bolakay oddiygina shamollashni o'lim sharpasi deya his etadi:

"Uyga kelganimda, bolakay hech kimni o'z yotog'iga kiritmayotganini aytishdi.

- Kirmang, - dedi u. Sizni ham kasal yuqtirishingizni xohlamayman.

Men uning yoniga kirdim, u hali ham o'sha holatda, yuzi oqargan, krovat chetiga tikilganicha yotardi. Men uning haroratini o'lchab ko'rdim.

- Necha ekan?

- 100 ni ko'rsatyapdi,- dedim. Aslida esa 102,4 ni ko'rsatayotgan edi.

-102,- dedi u.

- Kim aytdi senga?- so'radim.

- Doktor,- javob berdi o'g'lim

- Harorating joyida,- dedim. Buni xavotirlanadigan joyi yo'q.

- Men xavotir olayotganim yo'q. Faqat xayolimdan chiqarib yuborolmayapman.

- Sen o'ylama. Hammasi joyida, - uni ovuntirdim".

Hikoyada hayot va o'lim orasidagi yoshgina qalb egasining xayollari qalamga olingan. Ayrim adabiyotshunoslar: "To'qqiz yoshli bolada iroda nima qiladi? - degan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

haqli savol tug'iladi. Schetz obrazida hech qanday irodaning uchqunlarini ko'rmayman. O'limni his etish va uni oddiy qabul qilish isitmaning ta'siridagi alahsirashdir. Mana shu alahsirash bolaning o'z o'limini kutishga majbur etgan". Yuqoridagi savolga javob izlash maqsadida, ayrim psixologlarning fikrlarini o'rganib chiqdik. Ularning fikriga ko'ra, insonda iroda ikki-to'rt yoshligidayoq shakllanib bo'lar ekan. Yosh bolalar irodasida quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda qiziquvchalik va bilishga bo'lgan ishtiyoq kattalarga qaraganda ikki baravar yuqori bo'ladi. O'z harakatlarini kuzatish va nazorat qilish layoqati paydo bo'ladi. Ular asosan, maqsadni oxirigi nuqtasii vo'yishgacha bo'lgan barcha qiyinchiliklarni yenga oladilar. Demak, Bola o'zida tom ma'nodagi jasoratni, ya'ni o'limdek dahshatli kuchni yenga olish, unga tik boqish ko'nikmasini shakllantirgan. Shu ma'noda, bola irodasining mustaqilligi, bir tomondan, o'jarlikka, ikkinchi tomondan esa tanbeh berishga qarama-qarshi qo'yilgan: "- Nima deb o'ylaysiz, yana qancha fursatdan so'ng o'laman? – to'satdan so'radi u.

-Nima?

- Yana qancha vaqtdan keyin o'laman?

- Sen o'lmaysan!!! Qayerdan olding bunaqa bema'ni gapni?

- Ha, men o'laman. Uning 102 deganini eshitdim".

Irodaning mustaqilligi boshqa kishilarning fikrlarini, ularning maslahatlarini hisobga olishda ushbu fikrlar va maslahatlarga nisbatan ma'lum tanqidiylikni nazarda tutadi.

O'lim. Bu so'zni eshitgan har qanday odam bir qalqib tushishi, tabiiy albatta. Unga tan berish nechog'lik mushkul. Axir hayot, jon hamma uchun ham aziz, qadrlidir. Hikoya qahramonining xarakterida esa uning aksini ko'rish mumkin. Bu bilan uni hayotdan to'ygan, yoki pessimistik shaxs deb atash noo'rin bo'lardi. Ma'naviy dunyoqarash kishining yoshligidanoq shakllantirilib boriladi. Iroda mustaqilligi, mustahkam ishonch shu dunyoqarash bila birga kamol topadi, uni boyitadi. Ota-onaning vazifasi farzandlariga to'g'ri yo'nalish bera olishidadir: "- Odamlar bunday oddiy gripp bilan, ayniqsa 102 harorat bilan o'lmaydilar. Qanday axmoqona fikr.

- Men bilaman, ular o'ladilar. Maktabdagi fransuz bolalardan eshitgandim. Ularning aytishiga qaraganda, agar odamning tana harorati 44°C bo'lsa, o'lar ekan. Meni esa 102.

Bechora bolam, u kun buyi, aniqrog'i ertalabki soat to'qqizdan beri o'z o'limini kutibdi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Sen o'lmaysan. Bu boshqa termometr. Aslida sen aytgan termometrda o'rtacha harorat 37°C bo'ladi. Bunda esa teng.

- Rostdanmi?

- Albatta-da,- dedim. Bu ham mil va kilometrda o'xshab ketadi. Agar mashinada yo'l bosib o'tilsa, bu necha milga teng bo'ladi?

- A?- so'radi u".

Xeminguey asarlarida asosiy e'tibor inson psixologiyasi, uning irodasi masalalariga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Leo Lania Xeminguey haqida shunday yozgandi: "...ayni vaqtda u adabiyotimizda qayta takrorlanmaydigan xarakterlar, obrazlar yaratmoqda. Bu esa betakrorlikni yorqin yulduz kabi nur sochayotganiga o'xshaydi". Haqiqatdan ham shunday. Xemingueyning "Bizning vaqtlarda"("In Our Time"), keyinchalik "Nik Adams hikoyalari" ("Nick Adams stories") nomi ostida nashr qilingan turkum hikoyalar to'plami rus va Yevropa adabiyotshunosligida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan (asarning birinchi kitobi Sh.T.tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan). Sababi, Adams familiyasi qahramon Xemingueyning o'nga yaqin asarlarida uchraydi. Bu haqda F. Yang birinchi navbatda, Nik Adams juda qiziq qahramon ekanligini ta'kidlab o'tgan. Nik Adams ba'zan Xemingueyning bosh qahramoni, ba'zan kichik bir personajga aylanadi. U yozuvchining "biografik qahramoni" sifatida qaragan. Negadir Xeminguey hech qayerda Adams familiyasiga o'z asarlarida uni qahramon sifatida tanlaganini aytib o'tmagan. F. Yangning fikricha, Adams Xeminguey hayotiga taalluqli bir shaxs. Lekin uning qarashlarida biroz yanglishish bor, nazarimizda. Chunki, Xeminguey haqidagi tatqiqotlar buni isbotlab turibdi. Yangning fikriga ko'ra, "Big - Riverda" hikoyasida, "Nimaningdir yakuni" va "Uch kunlik zarba" novellalaridagi o'spirin Nik - bir obraz. E. M. Xellidey shunday yozadi: "...kupchilik kitobxon o'zi o'qigan hikoyalardan bir xillik topishga urinadilar. Bu unchalik to'g'ri emas. Har bir yozuvchi o'z hikoyalarda turli xarakter, turlicha personaj yaratadi. Buni hisobga olish muhimdir"

Tabiiyki, Xemingueyga aynan Adams familiyasi, Nik ismining qanday bog'liq tomoni bor, degan savol tug'iladi. Xeminguey ijodini o'rgangan rus adabiyotshunos olimi Ivan Kashkin bu asarni biografik talqin sifatida baholaydi.

Shuningdek, Xeminguey ijodini M.Mendelson, A. Platonov, Yu. Olesha, A. Elyashevich, R. Orlova va boshqalar keng miqyosda o'rgangan va tadqiq qilishgan.

Yu. Olesha "Xemingueyni o'qib" maqolasida: "...ba'zan o'ylab qolasan kishi. Biror bir asar yoki hikoyada tasvirlanayotgan zamon va makon oralig'idagi jarayonni kuzatar ekansiz, unda yozuvchining hayotdagi elementar narsalardan ham mohirlik



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

bilan foydalanganini payqab qolasiz. Qahramonlar xarektrida optimistik kuchli ruhni ko'rganda, o'z hayajoningizni ifodalashga til ojizlik qilib qoladi. Bunga Xeminguey ijodini kuzatib amin bo'ldim".

Bir so'z bilan aytganda, Xeminguey ijodida inson ruhi, uning ichki "men"i birinchi o'ringa ko'tarilgan. U asarlarida lirik chekinishlarni ustalik bilan ko'rsata olgan. Ritmik uyg'unlik prozaik asarlarda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bois "...Xeminguey asarlarida ichki ritmning yorqin misolini ko'rish mumkin".

Filip Yang Xeminguey ijodida inson irodasi, uning ruhiy holatlarini tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida Xeminguey qahramonlarining psixologiyasi, ularning yozuvchi ijodiga, hayotidagi o'rni kabi masalar o'rin olgan.

Uning eng katta qilgan ishi "Ernest Xeminguey" nomli asari bo'lib, unga Xeminguey asarlarida inson irodasining yoritilishi masalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu haqda Yu. Ya. Lidskiy o'zining "Ernest Xeminguey ijodi" nomli asarida aytib o'tgan. Shuningdek, aynan Lidskiy Xemingueyga inson irodasini yuksak cho'qqiga ko'targan ijodkor sifatida baho beradi.

Xemingueyning ko'pchilik asarlarida kuchli iroda sohiblarining badiiy obrazini uchratish mumkin. U yaratgan qahramon xarakterida yengilmas iroda, kuchli ruhiy holat mujassamlangan. Yozuvchi inson psixologiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Masalan, "Bizning vaqtda" (1925 y) asarini olaylik. Bu asar yozuvchining vafotidan so'ng Nyu-Yorkda 1972 yilda "Nik Adams hikoyalari" nomi ostida nashr etilgan. Kitobda Xeminguey hayoti davomida yozgan va Nik Adamsga bag'ishlangan turkum hikoyalar o'rin olgan. Aynan Nik Xemingueyning o'nga yaqin asarlarida ba'zan bosh qahramon, ba'zan kichik epizod tarzda uchraydi. Bu haqda B.Gilenson fikr bildirar ekan: "...Bizning vaqtda" tasvirlarning originalligi bilan Xeminguey asarlari orasida ajralib turadi. Xeminguey ushbu asarini yozar ekan, , novellachilik an'analari o'zgacha bir ruh olib kirdi. Shu boisdan ham avtobiografik figuralar yaratib, jahon adabiyotida o'zining o'chmas izini qoldira oldi", - deya ta'kidlab o'tadi.

Kitobning birinchi hikoyasi "Hindu qarorgohi" qahramoni Nik - o'spirin bir bola. Uning hayoti, xayollari, boliq haqidagi qarashlarida ham bolalarga xos soddalik bor. Hikoyada hindular orasidagi hayot, ular bilan munosabatlarning rivoji o'z aksini topgan. Nik xarakterida bosiqlik, lekin o'ta qiziquvchanlik kuchli. U hamma narsani boricha qabul qiladi. Zulmatdan qo'rqadi, yorug'likka intiladi. Bir so'z bilan aytganda "yangilikka intiluvchi qo'rqqoq". U atrofga doim ob'ektiv-holislik bilan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

yondoshadi: "Nik sen daraxtzordan qo'rqmaslik uchun o'zingda kuch topishing kerak. Nazarimda, buni istamayapsan. U yerda seni qo'rqitadigan hech narsa yo'q.

- Chaqmoq ham yo'qmi? - so'radi Nik.

- Yo'q chaqmoq ham yo'q. Momaqaldiraq gumbirini eshitsang yoki qayin daraxtiga duch kelsang, qo'rqma. Bu sen o'ylaganchalik daxshatli narsa emas.

- Rastdanmi?- so'radi Nik.

- Rastdan. Bu haqda umuman eshitmaganman, - javob berdi dadasi.

- Qayin haqida bilib olganimdan xursandman, - dedi Nik".

Bu esa Xemingueyni o'z qahramoniga yana bir o'zgacha yondoshuvidan dalolat beradi. Ularga mustahkam iroda, boshqalarga o'xshamagan xarakterni joylaydi. Xeminguey har bir qahramoni ruhiyatini sinchikovlik bilan tekshiradi. Ruhiy faoliyatnig o'z aqliy qirrasidan tashqari, ruhiy qirradi ham mavjuddir. Ularning harikkisi ham bir-birini taqozo etadi. Zero, inson dunyoni bilishga intilar ekan, unga muayyan hissiy munosabatda bo'ladi, o'z navbatida dunyo uning hislariga ta'sir etadi. Inson o'zining tabiat bilan munosabatlari natijasi o'laroq yuzaga kelgan eng ibtidoiy hislari bo'lmish qo'rquv yoki sevinchni, o'z jinsdoshlariga bo'lgan hissiyotlarini ham ifodalashga intilgan.. "O'n hindu" hikoyasida Nik ruhiy olamida buning yoqqol aksini ko'rishimiz mumkin. Unda Nik o'smir yoshidagi yigit. Do'stlari uni hindu qizni sevinchini aytib mazax qilishadi. Aslida ham Nik bir hidu qizni yoqtiradi. Ammo, otasidan o'sha qizni boshqa bir yigit bilan o'rmonda aylanib yurganini eshitib, xayollari sarob ekanligii anglaydi: "Qalbim chil-chil sindi", - ko'nglidan o'tkazdi u. Axir men uni...sevardimku!.. Agar buni o'ylayversam, yuragim pora-pora bo'lib ketadi. Jinni bo'lishim hech gap emas. Yo'q, mening irodam kuchli. Buni unitaman!".

"Nik Adams hikoyalari"dagi birinchi besh hikoyada Nik Adams hayoti yoritilgan. So'ngi to'rt hikoyada Nik Adams haqidagi so'ngi urush hikoya qilinadi. Shu sababli birinchi ikki bobni yozuvchi Nik Adams hayoti, uning qarashlarini yoritishga harakat qilgan. Uning hindular orasidagi turmush tarzi, ikki xalq vakillarining biri-biriga munosabatlari aks ettirilgan. Yosh Nik qalbida dunyo ba'zan tor, ba'zan aql bovar qilmas darajada keng.

Nik Adams obrazida hayotga bo'lgan qiziqish, borliq haqidagi qarashlarga munosabatni, tushkinlikka tushganda, uni yenga bilishdek jasorat aks etgan. Buni "Chempion" hikoyasida ko'rish mumkin: "Uning og'ir harakatlari dardmand odamnikidek edi. U oldinga harakat qilar, qanday bo'lmasin, biror yaqin joyga yetib olishi kerak edi". Bu hikoyada Nik uzoq yo'l yurib, o'rmondagi yong'in ustidan chiqib qoladi. U yerda turfa xarakterga ega odamlar bilan to'qnash keladi: "Nik



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

so'qmoqga chiqib olganda yorug'likka ko'zi tushdi. U olovga termulib turdi, olov so'qmoqning bir tomonida bo'lib, pastlikdan temiryul o'tgan edi. Olov tepalikka chiqqandagina, aniq ko'rindi. Olov qayerdadir kengayib, so'qmoqni ham kesib o'tardi-da, qishloq sari yonib borardi. Tog'li hudud bo'lgani uchun daraxtlar ko'z ochib yumguncha olov ichida alangalanib borardi. Nik to'siqni ushlab, asta pastlikka tusha boshladi".

Xeminguey hayoti va ijodini ancha chuqur va mukammal o'rgangan olim Ivan Kashkin o'z tatqiqotlarida "Nik Adams hikoyalari" haqidagi fikrlarga birmuncha aniqlik kiritadi. Uning yozishicha, "Nik Adams hikoyalari" biografik xarakterga ega asardir. Bo'lajak yozuvchi otasi Klarens Xeminguey bilan Amerika shimolida joylashgan Michigan ko'li atrofidagi dalahovlisiga tez-tez borib turar, u yerdagi hindu bolalar bilan do'stlashib qolgan edi. Keyinchalik o'sha xalq hayotiga bag'ishlangan "Hindu qarorgohi", "Doktor va uning xotini", "O'n hindu" hikoyalari yozadi.

"Hindu qarorgohi", "Doktor va uning xotini" hikoyalari yozuvchining o'z hayotiga yaqin, real voqealarni o'zida aks ettirgan. Chunki, Xemingueyning otasi ham xirurg bo'lgan.

Yozuvchi qahramonlarining harakatlarini shunday ustalik bilan yo'naltiradiki, bunga biror bir vosita orqali erishadi. Masalan, hikoyalardagi Jorj amaki obrazi. Uning uchun hamma narsa odiiy va qanday bo'lsa shunday bo'lishi kerak. Uning dunyoni anglashi butunlay boshqacha. U yashayotganidan, bugungi kuni maroqli o'tganidan mamnun. Shuningdek, janob Garner, kichik Jorj, Ed Fransis va boshqalar. Bunday qahramonlar hikoyalarni yana-da jozibali, yana-da mazmun kasb etishiga yordam berdi.

Asardan o'rin olgan "Qotillar" hikoyasida Ole Andreson obrazini olaylik. Sobiq jahon chempioni o'ziga uyushtirilgan suiqasdni bilsa-da, bu voqeaga bee'tibor qaraydi. Kimningdir tahqiridan qo'rqmay unga tik qaray oladi: "Andreson og'ir vazn bo'yicha sobiq chempion edi. U Nikni birinchi marta ko'rib turishi edi.

- Xo'sh, yigitcha, nima gapiy bor edi?

- Men hozir Genrining oshxonasidan kelyapman, - gap boshladi Nik. U yerga ikki kishi kelib, oshpaz va meni qo'l-oyog'imizni bog'lab, oshxonaga qamab qo'ydi. Ularning aytishiga qaraganda, sizni o'ldirmoqchi emishlar".

E. Xeminguey Andreson qiyofasida hayot haqiqatlariga tik boqish, unga munosib javob bera olish xususiyati yorqin aks ettirgan. Unda tushkunlikka tushgan paytlarda ham o'zini munosib tutadigan, hayotda yengilmaydigan qahramonni ko'rish mumkin. "- Bu narsa meni qiziqtirmaydi. Keyin, buni bilishni ham xohlamayman! U



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

shunday dedi-da, yana tikilib qoldi. Bu haqda ogohlantirganing uchun senga rahmat, - qo'shib qo'ydi Andreson". Yozuvchi o'z qahramonlarini tabiatan ojiz deb hisoblanadigan, ruhiy muvozanatga javob bera olishi shubhali qiyofalarni tanlagan. Ularni bir zanjir - metin iroda, yengilmas kuch bog'lab turadi.

Ehtimol, bunday kuchli iroda sohiblari bo'lib ko'ringan obrazlar yaratishga yozuvchining boshidan o'tkazgan voqealar sababchidir. E. Xeminguey hayotiga nazar solsak, u Yevropa, Afrika davlatlarida qiyinchiliklar bilan faoliyat ko'rsatgan. Xeminguey "Bayram doim sen bilan birga" xotiralar kitobida o'zining yoshligi kechgan Parijni eslaydi. O'sha paytlarda yon daftarchasiga bitgan yosh yozuvchining, ya'ni o'zining xatlari yordamida uning psixologiyasini tahlil etadi. Xotira kitobidan quyidagi misralarni o'qiymiz: "Xotirjam bo'l, deydi yozuvchi, o'ziga o'zi. Xotirjam bo'l, ertaga ham, indinga ham yoza olasan. Faqat ertaga davom ettirish uchun xamirturush qoldirsang bas".

Xeminguey kuchli shaxs, albatta. Xeminguey ijodiy jasorat tuyg'usini "Kalimanjaro qorlari" hikoyasida yanada kengroq tasvirlaydi. Hikoya qahramoni yozuvchi Garri Afrika jangalzorlarida ov paytida to'satdan oyog'ini shikastlantiradi. Arzimas yara kutilmaganda gangrenaga aylanib ketadi. Hikoya ana shu o'limini kutib yotgan odam psixologiyasining tasviriga qurilgan.

Garri o'layotib, qayta tug'iladi. U orzu qilgan mukammallik cho'qqisi Kalimanjaro bo'lib ko'rinadi. Yozuvchi Garrining joni uzilar ekan, so'ngi damda o'zi mingan samolyot Kalimanjaro qorlari tomon burilganini aniq ko'radi. Aslida, esa bu shunchaki tush bo'ladi.

Bir vaqtlar Xeminguey o'zi haqida yozilgan kitobdan norozi bo'lib, uning muallifi va nashriyotni sudga bermoqchi bo'ladi. Xemingueyning hayoti uning asarlarida aks etgani haqida juda ko'p gapirilgan. Bu gaplarda jon bor, albatta. Urush Ernest Xeminguey uchun ikkinchi universitet vazifasini o'tagandi. Birinchi jahon urishi uning ishtirokchisi bo'lgan adib uchun katta saboq berdi. Shu saboq natijasi o'laroq, jahon adabiyoti "Alvido, qirol!" romaniday durdona asar bilan boyidi. Bu roman insonning urushga qarshi mardona da'vati ekanligi, eng ezgu insoniy tuyg'ular kuylangani bilan misli yashin yanglig' ta'sir etdi. To'g'rirog'i, bu roman Xemingueyni katta yozuvchi sifatida jahonga tanitdi. Ispaniyaga ko'ngilli bo'lib xizmat qilgan Xeminguey o'zining "Alvido, qurol" romanida Ispaniyada o'tgan kunlari qalamga oladi. Bu roman haqida B. Gilenson shunday yozgan edi: "Avvalo, bu roman zamonamizning "Romeo va Juletta"si, desak, xato bo'lmas. Bu romanni ham chin muhabbat va insoniy tuyg'ularni kuyga solgan asar sifatida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

baholagan bo'lardim. Uning qahramonlari xarakterida iroda, ishonch va sadoqatni ko'raman"

Adib uchun uchinchi universitet Parij hayoti bo'ldi. Uning Parijda kechgan hayoti adabiyotda "Chol va dengiz" kabi ajoyib asar hadya etishiga zamin yaratdi.

Adibning «Chol va dengiz» qissasi yuksak badiiy mahoratdan darak beradi. Bu qissa yuzlab badiiy obrazlarni tasvirlagan asarlardan farq qiladi. Barmoq bilan sanarli obrazlar orqali ham falsafiy ma'no va mazmunni bera olish mumkinligi isbot etildi.

1936 yil bahorida "Eksvayr" juralida Xemingueyni bir ocherki bosilib chiqadi. Unda Golsfrimda ulkan baliq tutgan keksa baliqchi haqida hikoya qilinadi. Unda baliqchi akula bilan kunu-tun kurashganligi, umidsizlikka tushsa-da, yengilmay kurash olib borganligi haqida hikoya qilinadi. Keyinchalik bu ocherk "Chol va dengiz" qissasi syujetini tashkil qilgan. Qissa haqida muallif shunday yozgan edi: "...Chol va dengiz"ni ming sahifadan ham ortiqroq qilib yozish mumkin edi. Sababi, ko'pchilik yozuvchilar shunday yo'l tutadilar. Men ham qissamda yerli aholining turmush tarzi, qahramolarning bolaligi, qanday voyaga yetganligi-yu, uning oilasi haqida ko'pirib gapirish bilan sahifalarni ko'paytirsam bo'lar edi. Ammo men bunday qilmadim. Uni ortiqcha zalvorli bezaklar bilan ko'rsatishni lozim topmadim. Kitobxon qissani o'qib, hayotda shunday vaziyatga tushib qolgan inson holatini boricha qabul qilishlarini, uni his etishlarini xohlardim. Bu haqda F. Yang: "Inson deb atalmish "buyuk mavjudot" irodasi nimalarga qodir ekanligi, uni yengib bo'lmaydi, degan g'oya ilgari surilgan, nazarimda", - deb yozgan edi.

Haqiqatda ham, qarib - qartayib qolgan Santyago yolg'iz o'zi pistapo'choqday qayiqda, ochiq dengiz bilan kurashishi, inson irodasini yenib bo'lmaydi, degan falsafiy mazmun va hayot haqiqati qissaning asosiy qiyofasini ochib beradi.

Yozuvchi umuman o'zgacha bir yo'ldan borganligi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonida e'tirof etilgan. Sababi, Xeminguey ijodida yagona obraz bilan qissa yozish mumkinligi o'z isbotini topdi.

Chol o'z-o'ziga saboq beradi, irodasini mustahkam ekanligiga o'zini ishontirishga urinadi: "Menga qara, chol, yaxshisi, qo'rqib - po'rqib o'tirishingni bir yoqqa yig'ishtirib qo'y-da, ko'proq o'z kuchingga ishon, -dedi u".

Ulkan akula bilan haybatli dengizda kunu- tun kurashadi. Chol irodasi sabab, mag'rur dengiz, uning jonzodiga bas kela oladi.

Inson o'z-o'zini boshqarishi barobarida, ma'lum ma'noda o'zi ham aqliy iroda tomonidan boshqariladi. Inson qilishi lozim bo'lgan vazifaga "o'zi"dan buyruq olar ekan, har qaday sharoitda ham ish "bajariladi". Uni o'z irodasi yordamida ko'zatadi. Ba'zan hayotda shunday iroda egalari bo'ladiki, jismonan ojiz bo'lsalar-da, ruhan



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kuchli bo'lishadi, yoki aksicha. Sant'yago obrazida ham keksa bir insonni jismoniy jihatdan nochor, ammo, ruhan kuchli inson qiyofasini ko'rish mumkin: "U butun erkini qo'llariga berib ishlardi. Yoshlik kuch-quvvatini yo'qotgan oyoqlari bilan yelkalari ularga ko'mak berib turardi".

Tabiiy bir savol tug'iladi, nega yozuvchi aynan keksa insonni tanladi? Axir shiddatkor dengizga qarshi turish uchun kuchli iroda kerak bo'ladi. Qissaning ayrim o'rilarida cholning irodasi jismonan va ruhan uyg'unlashtirib ko'rsatiladi: "O'zingni bos, bardam bo'l, chol. Umrin bitib qoldi shekilli..."

Yo'q, - deb cho'rt kesdi u o'zini - bitib qolgani yo'q. Umrin ham yuz yoshgacha etadi, chol. Men unga qo'yushqondan tashqari azob bermasligim kerak, - deb o'yladi u. Mening dardim – o'zimda. Uni yengib o'tishim mumkin".

Akulani yenga olishiga o'zida botiniy kuch topishga urinadi. Qissada chol ruhiyatida tushkunlikka tushish holatlarini ko'zatar ekanmiz, chol ichki "men"idan bir isyon yuzaga qalqib chiqadi: "...uqubatni insonlarcha...yo bo'lmasa xuddi mana bu baliqchalik yengib o'tishga harakat qil, - deb xayolida qo'shib qo'ydi chol".

Ishonch, iroda mung'aygan cholning egona quroli edi. Mana shu qurol unga yordam bera oldi. O'z "men"i nimalarga qodir ekanligini ko'rsata oldi. Irodaning sharti ham shunday. U kishidan o'z "men"ni yengish, ruhiy holatini idora etishni talab qiladi.

D. Uoldmeir shunday yozgandi: - "...Chol va dengiz"ni ikki mashtab: hayotiy hikoya va ramziy asar nuqtai nazaridan baholagan holda o'qish kerak". Bu borada K. Xarada qissada murakkab ramziy obraz tanlanganligini ta'kidlab o'tadi.

Yengilish- mag'lubiyatni tan olishning birinchi qadami bo'lgani kabi bu qadamni tashlamaslik uchun keksagina bir odam kurashga shaylanadi: "Yengilib bo'lganingdan keyin yelkangdan tog' ag'darilganday yengil tortasan- qo'yanan! Xayol qildi u. Men buning shunchalik oson bo'lishini bilmasdim... kim ham seni yenga oladi o'zi, chol? – so'radi u o'zidan. Hech kim, - javob berdi u". Shuni o'zidan ham cholning metin irodasini, insonni yengib bo'lmaydi, degan falsafiy bir qarashni baralla aytish mumkin. Santyago obrazida "hali hammaga kimligimni ko'rsatib qo'yaman. Sohilda meni mana shu ulkan akula bilan ko'rsalar bormi, hayratdan tasannolar aytishadi", degan xayollar uni ochlik, qavarib ketgan qo'llarining azoblarini unitishga yordam berardi. Inson jazavaga tushgan paytlarda, o'zini qanday tuta olishi Sanyago obrazida o'z aksini topgan.

Shu ta'kidlash joizki, "Chol va dengiz" tanqidiy ziddiyatlarga ham uchragan. Sababi, ayrim adabiyotshunoslar undagi obrazlarni "ramziylashtish"ga uringan. Masalan, R. Spitler, M. Bekmen, K. Beyker va boshqalar. Ularning fikricha, qissada



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

hayotiy haqiqatdan ko'ra, xayoliy g'oyalar ustun. Qissadagi akula, arslon va boshqa obrazlar ramzning oddiy bir ko'rinishidir. Ammo, F. Yang bu fikrlarga o'zgacha yondoshadi: "...Marlin, akula, arslon ramzdan o'zga narsa emas. Xeminguey mana shu ramzlar orqali irodani ko'rsatishni ko'zlagan. Yozuvchi unda realizm va optimizmni ko'rsatishga harakat qilgan".

Xeminguey shuning uchun ham keksa bir qiyofani tanlagan. Ehtimol, yozuvchining mana shu tanlovi qissaning Nobel mukofotiga (1954 y) sazovor bo'lishiga sabab bo'lgandir.

Bu haqda M. Mendelson: "... oddiy bir baliqchi haqida hikoya qilingan ushbu qissada ko'z o'ngimizda inson taqdiri namoyon bo'ladi, moddiy manfaatdorlik mutlaqo yo'q holatdagi kurash ruhi ulug'lanadi... bu – mag'lubiyatga uchragan odam qo'lga kiritgan ma'naviy g'alabasi va inson irodasi sha'niga aytilgan madhiyadir", - deb yozgan edi.

"Chol va dengiz" – falsafiy qissadir. Unda hech qanday fantastik yoki to'qima syujetni ko'rmaymiz. Undagi har bir voqelik hayotiy haqiqatlarning mantiqiy ko'rinishidir. Bu qissada falsafiylik bilan bir qatorda, muallifning o'z dunyoqarishini ham ko'rish mumkin bo'ladi. Unda insondagi ishonch va kuchli ruhiy kayfiyat mohirona yoritib berilgan. Xeminguey betakror xarakterni o'zgacha bir uslubda ko'rsatib bergani uchun ham ushbu qissasi "aysberg metod" degan nom olgan. Nega aynan aysberg? Sababi, aysberg tashqi ko'rinishidan suv yuzasida turgandek ko'rinadi, ammo, uning asosiy og'irligi ummon tubiga bo'ladi. Ko'pchilik qissanavislar biror bir asar yaratar ekan, o'z qissalarida faqatgina tashqi muhitga, tashqi olamga e'tibor beradilar. Ya'ni, aysbergning suv ustida qalqib turgan qismiga. Bu esa kitobxonni zeriktirib ko'yadi. Xeminguey esa "Chol va dengiz"da aysbergning ummon tubiga tegishli qismiga, ya'ni keksa odamning kuchli iroda egasi ekaligini e'tirof etgan holda, asosiy fikrni kitobxonga yetkazib bera olgan. Ushbu qissada chol obrazini tanlanganligining o'zi ham mantiqiy xulosadir. Cholga nisbatan bepisanlik bilan qaraydigan baliqchilar, uning qo'lidan hech bir ish kelmasligini aytib ustidan kulishardi. Uning qo'lidan imalar kelishi sakson besh kun davomida dengiz va akula bilan kurashgan jarayonda ko'rinadi. Sant'yago hayotdagi bir haqiqatni, ya'ni insonni yengib bo'lmaydi, degan falsafiy g'oyani yta olgan. Ta'bir joiz bo'lsa, Sant'yagoni aysbergga o'xshatgan bo'lardik. Chunki, uning tashqi ko'rinishi keksayib qolgan, biror ishga yarashi ham dargumon. Ammo, uning ichki qiyofasi matonatli va metin iroda sohibi ekanligini tasdiqlaydi.

Ernest Xemingueyning qahramonlari keksa bo'lishiga qaramay, ochiq dengizda, ulkan baliq bilan kurasha oladi. Yoki to'qqiz yoshli murg'ak qalbi bilan o'limni



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

engadi, Nik Adams bo'lib hayotni borligicha qabul qiladi, unga intiladi. Genri bo'lib urush ustidan g'alabaga erishadi, seviklisidan ayrilsada, hayotda yiqilmaydi. Ular uchun hayotga kelib, undan bir bor nafas olmagan farzandi uchun yashaydi. Ular ruhi oldida o'z burchini ado etadi. Xeminguey turli obrazlar yaratdi, shu qahramonlar qalbida yashadi va olam aslida biz uchun qanday ekanligini ko'rsatib bera oldi. Uni qalam bilan inson qalbini, ruhini so'z bilan chiza olgan yozuvchi sifatida e'tirof etish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Jo'raqulov U. "Hududsiz jilva". –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Jo'raqulov U. "Mif va ijodiy jarayon". –T: 2005.
3. Грибанов Б.Т. Хемингуэй: герой и время, М; - "Худож. литература", 1980.
4. Гуревич К. М. воспитание воли в процессе производственного обучения. М; - Высшая школа, 1966
5. Дўстмухаммад, Кудрат. "Нобел мукофоти олган адиблар". Т; - "Маънавият", 2002. Б – 154-158
6. История американская литература XX века, II тома, II том. М; - "Наука", 1971, С-251
7. Кашкин И. А. Эрнест Хемингуэй. Критико-биографический очерк, М; - "Худож. Литература", 1966
8. Левидова И.М и Парчешская Б.М. Эрнест Хемингуэй – библиографический указатель. М; - «Книга», 1970
9. Лидский Ю.Я. Творчество Хемингуэя. Издание 2 –е, переработанное. – Киев: "Наука думка", 1978.
10. Лондон, Жек Хикоялар, Т; 2007
11. Лондон, Жек. Икки хикоя. Сейзер хоним // Жаҳон адабиёти. - Т; 2007 йил, №2. - Б.- 4-8
12. Маянц З.И. "Человек один не может... Э.Хемингуэй. Жизнь и творчество", М; - "Просвещение", 1966